

## PUBLITSISTIK USLUBDAGI TILAK NUTQIY JANRINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

*Sayfutdinova Durdona Pulatjonovna*  
*Andijon davlat universiteti katta o‘qituvchisi*  
*saydur01041973@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada publitsistik uslubda ifodalanuvchi tilak nutqiy janrining leksik-semantik va grammatik jihatdan bir butun mikromatn ekanligi, unda adresant va adresat, vaqt, makon kabilarning mavjudligi uning lingvistik bir butun matn ekanligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** gazeta janri, publitsistik maqola, publitsistik nutq, adresant, adresat, matnning modusi, diktum, mikromatn va makromatn.

Ma'lumki, gazeta publitsistikasi o‘ziga xos og‘zaki va yozma nutqiy janrlarni, xususan, intervyu, reportaj, ocherk, lavha kabilarni o‘z ichiga olishi bilan xarakterlanib, ushbu janrlar informativlik, targ‘ibot, tashviqot, tarbiyaviylik, tashkilotchilik, reklamalilik, ta'sirchanlik funksiyalari bilan ajralib turadi va bu vazifalarni amalga oshirish uchun ommaviylik, obrazlilik, ekspressivlik, emotsionallik, aniqlik va konkretlik, ixchamlik, uslubiy muvofiqlik kabi mezonlarga amal qiladi. Gazetada rasmiy siyosiy nutqlar, turli publitsistik va badiiy publitsistik janrlar tarkibida tilak nutqiy janri yirik xajmli gazeta janrining bir qismi sifatida ishtirok etadi. Masalan,

– Kasbim muallim bo‘lganligi uchun doimo ta'limdagi islohotlar, yangiliklar, novator ustozlarimiz tomonidan yaratilayotgan innovatsion metodlar, darslarni optimal darajada o‘tkazishni metodik uslublari, shuningdek, ijodkor ustozlarimizning nazm va nasrdagi ijodlarini kuzatib borishga juda qiziqaman. Ish faoliyatimda doimo beg‘araz ko‘makchi bo‘lib kelayotgan sevimli maslahatgo‘yim “Marifat”dan juda minnatdorman, 2023-yilda gazeta mening chin maslakdoshim va yo‘lchi yulduzim bo‘ldi, desam aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Har yilgidek bu yil ham “Marifat”da ta'lim-tarbiyaga oid turli maqolalar o‘z o‘rnida chop etilishi samarali bo‘ldi. Unda respublikamiz pedagoglarining ilg‘or ish tajribalari, ustozlarimiz tomonidan yaratilgan namunali ochiq dars ishlanmalari, maktab va oila hamkorligi, ijodkor muallimlarimizning nazmiy va nasriy ijodlaridan namunalar, alloma bobolarimizning dunyo ilm-fani rivojiga qo‘shgan hissalar haqidagi maqolalar menga zavq bag‘ishladi.

Gazetaning “Shapaloq” ruknida adabiyotshunos olim Nusratilla Jumaxo‘janing O‘zbekiston Qahramoni, sevimli shoirimiz Abdulla Oripov haqida yaratilgan film to‘g‘risidagi “Porloq siymoning so‘niq talqini” maqolasidagi tanqidiy fikrlar bir o‘qituvchi bo‘lsam-da, menga ham taaluqli ekanligini to‘la his qildim.

Mana, “Ma'rifat” mutolaasi biz o‘qituvchilarga nimalar beradi. Bunday mazmunli maqolalar va ulardan olayotgan xulosalarimni yozsam qog‘ozga sig‘mas ... Sevimli gazetamizni necha yillardan beri muntazam mutolaa qilsam-da, bu yil mening u bilan yaqin hamkorligim ancha samarali bo‘lgani uchun, 2023-yilni alohida e'tirof yetaman. Yil davomida sevimli nashrimda bir necha maqolam chop yetilganidan xursandman. “Ma'rifat” gazetasi bir tomondan o‘qituvchilarga bilim, taffakur bersa, bir tomondan o‘z ijodini namoyish qilish, kasbiy yutuqlari va tajribalarini boshqalarga ulashish imkonini ham beradi.

“Ma'rifat”ning tinim bilmas ijodiy jamoasi bu yil “Mening tajribam” tanlovi e'lon qilgani nur ustiga nur bo‘ldi. Tanlov doirasida darsga ijodiy yondashib kelayotgan ijodkor o‘quvchilarimizni tanib oldik. Ularning njan'anaviy, innovatsion metodlari boshqa o‘quvchilarga

ham asqotyapti. Buning uchun gazeta ijodkorlaridan minnatdor bo‘lgan holda, tanlovga kelgan yuzlab maqolalarni ko‘rib, saralab chiqishda ularga kuch quvvat tilayman.

So‘zim yakunida, respublikamizdagi barcha ta'lim ahlini kirib kelgan yangi 2024-yil bilan qutlayman! Yangi yilda ham oilaviy baxt-u saodat barchamizga hamroh bo‘lsin! “Ma'rifat”ning ziyosi barchamizning qalbimiz-u xonadonlarimizni nurafshon etaversin.

Ushbu misoldan ko‘rinadiki, gazeta janrida tilak nutqiy janri publitsistik maqolaning yakuniy qismi sifatida voqye'langan. Tilak nutqiy janri boshqa yuqoridagi matn qismlari bilan “So‘zim yakunida” jumlasini orqali bog‘lanib, tabrik nutqining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunda tilak nutqiy janrining semantik jihatdan tabrik+tilak modeli shakllangan. R.Karimov ushbu nutqning adresanti, Ma'rifat gazetasi xodimlari adresatlardir. Adresantning tilagi matnning modusini adresant bilan bog‘laydi va bu modus – sin grammatik qo‘shimchasi yordamida ifodalanadi va men tilayman mazmuniga ega bo‘ladi. Shu o‘rinda aytish kerakki, tilak nutqiy janrida Men... tilayman modeli rasmiy va rasmiy-siyosiy nutqlarda eng ko‘p qo‘llaniluvchi grammatik qurilma bo‘lganligi sababli publitsistik va so‘zlashuv nutqida uning mantiqiy davomi bo‘lgan ... sin grammatik shakli ko‘p qo‘llaniluvchi modeldir. Shu sababli ham publitsistik va so‘zlashuv uslubida ushbu grammatik tayyor qurilmaning ko‘p qo‘llanilishi kuzatiladi.

Adresant tomonidan aytilgan Yangi yilda ham oilaviy baxt-u saodat barchaga hamroh bo‘lishi va “Ma'rifat”ning ziyosi barchaning qalbiyu xonadonlarini nurafshon etaverishi jummalari esa semantik jihatdan diktum qismni ifodalaydi. Demak, adresantning ushbu tilak jumlasini aytishdan maqsadi Yangi yilda ham oilaviy baxt-u saodat barchaga hamroh bo‘lishi, “Ma'rifat”ning ziyosi barchaning qalbiyu xonadonlarini nurafshon etaverish kabi o‘z istak hoxishlarini adresatga bayon qilishdir.

Gazeta janrida tilak nutqiy janriga oid nutqiy vaziyatga xos vaqt, holat, makon munosabatlari publitsistik uslubda o‘ziga xos tarzda kechadi. Masalan ushbu nutqning “Ma'rifat” xalq ziyolilari gazetasi 2024-yil, 4-yanvar, №1 (9482), 8-betda berilishi makon, zamon, holat xususiyatlarini to‘lig‘icha o‘zida ifodalaydi. Belgilangan kommunikativ nutq fursatining mavjudligi adresantga adresat uchun tilak aytish bilan bog‘liq vaqt, makon, zamon kabi kommunikativ suhbat imkoniyatini yaratganligi bilan izohlanadi. Ammo rasmiy nutqlarning gazeta vositalarida berilishi uning yozma shaklga aylanishini ta'minlasa-da, makon, vaqt, zamon, holat masalalariga hych qanday ta'sir ko‘rsatmaydi. Chunki rasmiy nutqlarning marosimiy ko‘rinishda bo‘lishligi uning reallashuv vaqti, zamoni, joy kabilar aniq belgilab beradi. Publitsistik uslubda ifodalangan tilaklar rasmiy-siyosiy, rasmiy-publitsistik, badiiy publitsistik uslubga oid matnlar tarkibida uchrashi bilan xarakterlanadi. Publitsistik uslubdagi tilak nutqiy janri aksariyat hollarda monologik shaklda ifodalanadi. Ammo gazetaning intervyu janrida publitsistik uslubdagi tilak nutqiy janrining dialogik shakli kuzatilishi mumkin.

Publitsistik ulubdagi tilak nutqiy janri boshqa yirik turkumdagi janrda butunning bir qismi sifatida mikro va makromatn sifatida shakllanadi. Matnning leksik qatlami rasmiy publitsistik leksikaga va rasmiy grammatik qurilmalarga boyligi bilan ajralib turadi, noverbal vositalar va lingvistik atributlar passiv ishtirok etadi. Chunki noverbal vositalar va lingvistik atributlar ko‘proq marosimiy xususiyatga egaligi bois ushbu vositalar so‘zlashuv nutqida faoldir. Publitsistik uslubdagi tilaklarda maqto+vtilak, duo+vtilak, tabrik+vtilak kabi semantik shakllar qo‘llaniladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, publitsistik uslub tilaklarining aksariyatida adresantning nutqiy maqsadi nutqni yakunlashdir. Bunda adresant suhbat mavzusini tilak aytishga yo‘naltirishida ko‘rinadi. Demak, bu o‘rinda tilak nutqiy janrini publitsistik nutqni yakunlashning an'anaviy shakli deb baholash mumkin. Shu bilan birga publitsistik uslubda ifodalanuvchi tilak nutqiy janrining leksik-semantik va grammatik jihatdan bir butun mikromatn ekanligi, undagi adresant va adresat, vaqt, makon kabilarining mavjudligi uning lingvistik bir butun matn ekanligini ta'minlovchi vositalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдусаидов А.. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филология фанлари доктори диссертацияси. Т., 2005. – 281 б.
2. Каримов Р. Бу йилги ҳамкорлигимиз янада самарали бўлди. Маърифат халк зиёлилари газетаси. 2024-йил, 4-январь, №1 (9482).
3. Pulatjonovna, S. D. (2023). LINGUISTIC ANALYSIS OF ARTISTIC TEXT. PEDAGOG, 6(11), 305-308.
4. Nabieva, D., & Nurmanova, D. (2022). Manifestation Of The Generality-Specificity Dialectic In The Vowel System Of The Uzbek Language. Journal of Positive School Psychology, 6(8), 1765-1771.
5. Nurmanova, D. A. (2019). ТЕКСТ, КАК УНИВЕРСАЛЬНАЯ ФОРМА РЕПРЕЗЕНТАЦИИ" ЧАСТИ ОТ ЦЕЛОГО". Theoretical & Applied Science, (4), 582-585.
6. Nurmanova, D. A. (2021). Neutralization of Consonant Opposition in Anlaut of the Uzbek Language. Academicia Globe, 2(6), 347-354